

ARABLAR BOSQINI VA MARKAZIY OSIYO XALQLARINING ISTILOCHILARGA QARSHI KURASHI MANBASHUNOSLIGINING BA'ZI MASALALARI

Abduxomitov Nizomiddin Xolbobo o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti kechgi bo'lim 401-guruh talabasi

Yakobjanov J.J

Ilmiy rahbar: PhD, dots.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada VIII asr boshlarida arab xalifaligining O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi, mahaliy hudud aholisining bosqinga qarshi milliy ozodlik harakatlari manbaalarda yoritilishi va bu manbaalarni o'rganilishi haqida bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Muqanna, Arab xalifaligi, Mavorounnahr, manba, O'rta Osiyo, bosqin, istilo, din*

THE ARAB INVASION AND SOME ISSUES OF SOURCE STUDY REGARDING THE RESISTANCE OF CENTRAL ASIAN PEOPLES AGAINST THE INVADERS

Abstract: *This article will cover the incursion of the Arab Caliphate into the territory of Central Asia at the beginning of the 8th century, the portrayal of the national liberation movement of the local population against the invasion in sources, and the study of these sources.*

Keywords: *Muqanna, Arab Caliphate, Transoxiana, source, Central Asia, invasion, conquest, religion*

НАШЕСТВИЕ АРАБОВ И БОРЬБА НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ПРОТИВ ЗАХВАТЧИКОВ: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЯ

Аннотация: *В этой статье будет освещено проникновение Арабского халифата на территорию Средней Азии в начале VIII века, освещение в источниках национально-освободительного движения местного населения против вторжения и изучение этих источников.*

Ключевые слова: *Мукана, Арабский халифат, Мавераннахр, источник, Средняя Азия, вторжение, завоевание, религия*

Arablar zulmiga qarshi xalq ozodlik kurashlari O'rta Osiyo xalqlari arablar istilochilik yurishining birinchi kunlaridan boshlab o'z erki va ozodligi uchun muqaddas kurashga otlanganlar, ona Vatan tuprog'ining biror qarich yeri bo'lsada, uni jangsiz va kurashsiz bosqinchilarga bermaganlar, Arablarga qarshi olib borilgan erk va ozodlik kurashining- eng e'tiborli tomoni shundaki, bu kurashda Movarounnahrning o'troq qadimiy yerlik aholisi bilan turk qabilalari doimo birgalashib yagona ittifoqda jang qilganlar.

Bu davr tarixini yoritishdagi ilk manbaa bu Tabariyning “Payg’ambarlar va mamlakatlar tarixi” asari katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu asarbi 963-yilda Ba’lami qayta ishlab, fors tiliga tarjima qilgan.

At-Tabariy bu asarni yozishda o’zidan avval yashagan Abdul-Hasan Ali ibn Muhammad al-Madoiniy asaridan keng foydalanilganligi ko’rinadi. Manbaa yozishda avvalgi tarixchilarni asariga suyanish xususiyatiga ega, ammo al-Madoiniy o’z hikoyalarini boshqa asarlardan farqli ravishda, tarixiy asarlardan ko’ra epic xalq dostonlariga o’xshatishga harakat qilgan³³.

At-Tabariy boshqa tarixchilardan farqli ravishda tarixiy voqealarni aniq dalillar asosida yoza boshlagan. O’z o’rnida ta’kidlash joizki, At-Tabariyning “Payg’ambarlar va mamlakatlar tarixi” asari arab tarixshunosligini dastlabki bosqichini yakunlaydi.

Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Ba’lami qalamiga mansub, arab tilidan tarjima qilingan va to’ldirilgan “Tarixi Tabari” asari ham O’rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishiga aloqador ko’plab qiziqarli ma’lumotlar beradi. Ba’lamiyning asarida asosan Samarqandning egallanishi va Qutayba ibn Muslim bilan Samarqand hokimi G’urak o’rtasida bo’lib o’tgan kelishuv shartlari, majburiyatlari va xususiyatlari ochib berilgan³⁴.

Mazkur davrga oid yana bir muhim manba, bundan ming yil oldin yozilib, bizning kunlarga etib kelgan nodir qo’lyozma asar – Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari. Narshaxiy Buxoro viloyatida Narshax qishlog’ida tug’ilgan. Uning to’la ismi Abu Muhammad ibn Ja’far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik (899-960 i) dir.

Bu asar asosan O’rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqalishi va undan bevosita oldingi davrlar hamda VIII-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlarining tarixi haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, shu erda yashagan xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy tarixiga oid muhim ma’lumotlarni o’z ichiga olgan va bu xol “Buxoro tarixi” ning qimmatli manba sifatida tarix fanida zo’r shuxrat topishiga olib keldi. Asarning hozirgi davrgacha etib kelishi tarixi boshqa ko’p yozma manbalarga nisbatan o’zgachadir.

“Buxoro tarixi” ning so’z boshida aytilganidek, uni dastlab Buxoroning Narshax qishlog’idan bo’lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy tomonidan 943-944 yillarda arab tilida yozilgan. Hozirda Narshaxiyning nomi O’rta Osiyoning VIII-XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda keltiriladi. Lekin uning hayotiga oid ma’lumotlar keltirilmaydi. Bunga sabab uning o’z asarida ham va unga yaqin davrlarda yashagan boshqa mualliflar asarlarida ham bunday ma’lumotlar keltirilmagan. Faqat Sam’oniyning “Kitob ul-ansob” asarida uning to’la nomi va u Buxoroda 899 yilda tug’ilgan hamda 959-960yillari vafot etganligi eslatiladi.

Asarning bizgacha etib kelgan nusxasining so’z boshida aytilishicha, 1128 yilda asli hozirgi Quva shahridan bo’lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr Kuvobiy Narshaxiyning kitobini “ko’pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o’qishga rag’bat

³³ Tabariy “Payg’ambarlar va mamlakatlar tarixi”.

³⁴ Ba’lami “Tarixi Tabari”.

ko'rgazmaganliklari" sababli o'z do'stlari iltimosiga binoan arabchadan fors tiliga o'girgan. U "arab tilidagi nusxada so'zlangan keraksiz va buning ustiga o'qiganda malollik orttiradigan narsalarni" tarjimaga kiritmay qisqartirib yuborgan.

Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida VIII-XII asrlardagi tarixiy voqealar joy olgan. Mazkur asar turli masalalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular orasida "Buxoro fath etilishining boshlanishi"³⁵, "Qutayba ibn Muslimning hukmronligi va Buxoroning fath qilinishi", "Movarounnahring arab va ajam o'rtasida tagsimlanishi", "Buxoroning fath etilishi va u yerda islom dinining tarqalishi", "Masjidi jomening bino etilishi", "Iyd namozgohi", "shahrining arab va ajam o'rtasida taqsimlanishi", "Muqannaning xuruji va uning tobelari oq kiyimliklar" kabi boblari bevosita arab bosqini va uning oqibatlarini hamda islom dinining tarqalishi bilan bog'liq voqealarni tasvirlab beradi³⁶.

"Buxoro tarixi" asarida xalqning ahvoli va arab bosqinchilariga qarshi harakat (masalan, Muqanna boshchiligidagi xalq harakati) qoralanadi³⁷. Mahalliy zodagonlarning unga qarshi harakati ma'qullanadi, ammo shunga qaramay, VI-X asrlar tarixiy voqealarining xolisona bayoni uni qimmatli manba darajasiga ko'taradi. Busiz Markaziy Osiyo xalqiarining arablar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoliga, keng xalq ommasining bosqinchilarga qarshi kurashiga baho berish mushkul. Ushbu asarning forsiy matni 1892, 1894, 1904 va 1939-yillarda Parij, Buxoro va Tehronda chop etilgan. Kitob rus, ingliz va o'zbek tillariga (1897, 1954, 1966-yillar) tarjima gilingan. "Buxoro tarixi"ning hozirgi tarixshunoslik uchun qimmatli manba ekanligi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Narshaxiy "Buxoro tarixi". Toshkent- 1966-yil.
2. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. Toshkent: NIF MSH, 2020. 444 B.
3. Tabariy "Payg'ambarlar va mamlakatlar tarixi".
4. Ba'lami "Tarixi Tabari".
5. A.Mets "Musulmanskiy renesans" M., 1973. 351c.
6. I.Jabborov, S.Jabborov "Dunyo dinlar tarixi". Toshkent: "O'zbekiston", 2002.

³⁵ Narshaxiy "Buxoro tarixi". Toshkent- 1966-yil

³⁶ Narshaxiy "Buxoro tarixi". Toshkent- 1966-yil

³⁷ Narshaxiy "Buxoro tarixi". Toshkent- 1966-yil